

XORAZM VILOYATI TOPONIMLARI TARKIBIDA OYKONIMLARNING SHAKLLANISHI

Kutlimuratov A.A.

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Аннотация: Хорезмская область регион с уникальными природными условиями с географической точки зрения. На основе этого в данной статье анализируется появление ойконимов в топонимике Хорезмской области.

Ключевые слова: топоним, географические названия, географические термины (топотермы), гидронимы, ойконимы, этнонимы, фитонимы.

Abstract: Khorezm region is a region with unique natural conditions from a geographical point of view. Based on this, this article analyzes the occurrence of oikonyms in the toponyms of the Khorezm region.

Keywords: toponym, geographical names, geographical terms (topoterms), hydronyms, oikonyms, ethnonyms, phytonyms.

Kirish. Jahondagi geografik nomlar xilma-xil tabiiy, tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsulidir. O'zbekiston Respublikasida ham joy nomlari nihoyatda ko'p va rang-barang bo'lib, ular mazmunan boy hamda tarixiy sanaladi. Ma'lumki, joy nomlari hududning o'tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari, turli millat va elatlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Geografik nomlar asosan o'tmish davrlaridan beri aholining ko'chishi, o'zaro muloqatlari, el-elatlar bo'lib yashab o'tgan hudulari to'g'risida tasavvurlar beradi.

Har qanday geografik ob'ektni to'g'ri nomlash doimo muhim va dolzarb masala hisoblanib kelingan, aslida yer yuzasidagi barcha ob'ektlar emas, balki inson faoliyati davomida ma'lum ahamiyaga ega bo'lgan yoki boshqa ob'ektlardan nimasi bilandir farq qilib, odamlar diqqatini o'ziga tortgan joylarga nomlangan.

Toponimikada o'rganiladigan geografik nomlarning eng katta tarmog'i *oykonimika* (yunoncha, "oykos"-uy, turar joy, makon) ya'ni: ma'muriy-hududiy birliklar, aholi yashash maskanlari va ularning qismlari (*qishloq, mahalla, guzar, ko'cha, ovul, qo'rg'on*) nomlarini o'rganuvchi soha hisoblanadi. Shuningdek *urbanonimika* (yunoncha "urbo"-shahar ichidagi har qanday ob'ektlar) nomlarini ham o'rganuvchi yo'nalishdir.

Oykonimlar tarkibiga shahar, qishloq, shaharcha, ovul, mahalla, guzar, ko'chalar kirib, joy nomlari orasida alohida ahamiyatga ega. Bu nomlar joyning tabiiy va iqtisodiy geografik sharoiti, foydali qazilmalari, aholining milliy-etnik tarkibi, kasb-hunari, tarixda yuz bergan muhim voqea va hodisalar haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek toponimlar tarkibida kishilarning ism-familiyasi bilan bog'liq bo'lgan oykonimlar *antropooykonimlar* deb, urug', qabila, elat, xalq, millat kabi etnik birliklar nomi bilan atalgan oykonimlarni *etnooykonimlar* deb atash qabul qilingan[4]. Oykonim shahar, shaharcha, qishloq kabi aholi manzillarining atoqli

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

otlari hisoblanadi va ilmiy nuqtai nazardan ikki turga bo'lishimiz mumkin: 1) *astionimlar*; 2) *komonimlar*. *Astionim* termini ham grekcha bo'lib, (ἄστυ ὄνομα) - «shahar nomlari» degan ma'noni anglatadi. Toponimikaga oid tadqiqotlarda *astionim* terminiga sinonim sifatida *polisonim* (grekcha *polis*-shahar-*onoma*-nom) termini ham qo'llanadi. *Komonim* (grekcha (κώμη) *komos*-ovul, qishloq, shaharcha (posyolka)+*onoma*-nom)lar-qishloq, aholi turar joylarining atoqli nomlaridir[4].

Demak, Xorazm viloyati oykonimlari sirasiga quyidagi joy nomlarini kiritishimiz mumkin: 1) shahar nomlari (*astionimlar* yoki *polisonimlar*): *Urganch*, *Xiva* kabi; 2) shaharcha nomlari (*komonimlar*): *Xonqa*, *Xazorasp*, *Bog'ot*, *Qo'shko'pir*, *Shovot*, *Gurlan* kabi; qishloq nomlari (*komonimlar*): *Vazir*, *Ovshar*, *Qoravul*, *G'ozobod* kabi; mahalla nomlari: *Mustaqillik*, *Istiqlol*, *Taraqqiyot* va boshqa shu kabi joy nomlari.

O'zbek toponimikasining shakllanishi va taraqqiyotida H.Hasanov, S.Qoraev, Z.Do'simov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.O'rinboev, N.Oxunov, Sh.Qodirova, T.Rahmatov, L.T.Karimova, Yo.Xo'jamberdiev, J.Latipov, K.Seytniyazov, A.Otajanova, M.Mirakmalov, K.Xakimov, M.Tillaeva, F.Abdullaev, O.Madrahimov, A.Ishaev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Shuningdek S.Nayimovning 1984 yilda Buxoro viloyati oykonimlarining nomlanish xususiyatlari, leksik-semantik, grammatik jihatlar mavzusida nomzodlik dissertatsiya ishi, M.N.Ramazonova 1986 yilda Toshkent viloyati oykonimlari taraqqiyotiga doir nomzodlik dissertatsiya ishi, 1998 yilda S.Qoraev geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston oykonimiyasiga doir doktorlik dissertatsiya ishlari mamlakatimiz oykonimlarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlardan hisoblanadi. Shunday bo'lsa ham hozircha Xorazm viloyati oykonimlari to'liq tahlil qilinmagan.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy g'arbida joylashgan bo'lib uning yer maydoni 6,3 ming km² ni tashkil etadi. Mamlakatning shimoli-g'arbida joylashgan, qadimiy sug'orish madaniyatiga ega bo'lgan ko'hna viloyatlardan biridir. Tarkibida 3 ta shahar (*Urganch*, *Xiva*, *Pitnak*); 11ta qishloq tumani (*Hazorasp*, *Gurlan*, *Urganch*, *Xiva*, *Xonqa*, *Shovot*, *Qo'shko'pir*, *Bog'ot*, *Yangiariq*, *Yangibozor*, *Tuproqqal'a*); 58 shaharcha, 98 ta qishloqlardan tarkib topgan. Ma'muriy markazi – *Urganch* shahri.

Asosan sharq mamlakatlarida eng yirik aholi punktini ifodalaydigan so'z dunyodagi ko'pgina tillarda “*istehkom*”, “*qal'a*”, “*qo'rg'on*”, “*mustahkam devor bilan o'ralgan*” kabi ma'nolarni anglatadi. Dastlabki Turkiy qabilalarning o'troqlashishi va Xorazmga ko'chib kelish davrida ham, hozirgi davrda ham, *qal'a* so'zining ma'nosi to'la saqlanganligini ko'rishimiz mumkin[2,3]

O'rta Osiyo toponimiyasida eng ko'p tarqalgan termin *qal'a*(*qala*) so'zidir. Toponimist Z.Do'simov *var* (*vara*), *pur*, *kat*, *kas*, *qal'a* kabi toponimik terminlarni qadimgi Xorazmning topoterminlari deb hisoblaydi. Ular uzoq davrlardan bizga yetib

kelgan toponimlar tarkibida ishtiroq etadi hamda tarqalish areali nihoyatda kengligi bilan ajralib turadi.

Bu termin turli tilda va xilma-xil fonetik shakllarda Yevropa (*burg*)-Atlantika okeani sohillaridan Hindiston yarim oroligacha(*pur*), Afrika, Osiyoning bepoyon hududlarida son-sanoqsiz toponimlar hosil qilgan. Gamburg, Lyuksemburg, Strasburg, Jaypur, Rampur, Singapur va boshqalar.

Bu soʻz ispan mustamlakachilari bilan birga Lotin Amerikasiga yetib borgan va Janubiy Amerika mamlakatlari toponimiyasida ham sezilarli iz qoldirgan: Castilla Urbana, San Diego De Castilla, Portal de Castilla va boshqalar (*el-castillo* ispan tilida qalʼa soʻzi degan maʼnoni bildiradi). A.Z.Rozenfeld Qalʼa termining tarqalish geografiyasini Yaqin va Oʻrta sharqdan tortib to Pireney yarm oroligacha yetib borganligini qayq qilib oʻtgan[1,2,4].

E.M.Murzayev geografik nomlar tarkibidagi *qalʼa* juda qadimiy element boʻlib, antik davrdan ham oldin paydo boʻlgan deydi[2].

Xorazmda qalʼa deganda ichki hovlisi boʻlgan va qalin devor bilan oʻralgan turar-joy(oykonim) tushunilgan. Keyinchalik, shahar va qadimiy shaharlarning xarobalari ham qalʼa deyiladigan boʻldi.

Xorazm viloyati toponimlari tarkibida oykonimik topoterminlar oʻziga xos tarkibda topadi. Bu guruh toponimik terminlarga *qishloq*, *qalʼa*, *ovul*, *obod*, *guzar*, *kent* (*kat*, *kand*), *mahalla*, *qoʻrgʻoncha* kabi terminlar kiradi. Ular oykonimlarni ifodalovchi muhim belgilaridan hisoblanadi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududida "*qalʼa*" elementli toponimlar ham koʻplikni tashkil qiladi: Ayozaqalʼa, Aqchaqalʼa, Ayduzqalʼa(Oydoʻsqalʼa), Arazqalʼa, Oltinqalʼa, Oqboshqalʼa, Oqqalʼa va boshqa oykonimlarni sanash mumkin.


Xorazm viloyatida "*qalʼa*" termini mavjud oykonimlardan baʼzilarni aytib oʻtish mumkin: Ashaqqalʼa, Buzqalʼa, Doshqalʼa, Idaliqalʼa, Koʻnaqalʼa, Chigʻatoyqalʼa, Shagʻalqalʼa, Shoʻrqalʼa, Yuqoriqalʼa, Qoramanqalʼa, Katqalʼa, Ichanqalʼa, Dishanqalʼa va boshqalar.

Viloyatda "*qishloq*"-termini bilan: Yangiqishloq, Kattaqishloq, Jarqishloq va boshqa oykonimlar; "*ovul*"-termini yordamida: Qorovul, Yuqoriovul, Koʻnaovul, Oqovul, Oʻrtaovul, Sartovul, Qirqovul, Tojikovul, Qozoqovul va boshqa oykonimlar; "*obod*"-termini yordamida: Bekobod, Yangiobod, Paxtaobod, Chinobod, Choʻlobod, Xayrobod, Xonobod, Fayziobod, Gulobod, Nurobod, Qulobod va boshqa oykonimlar yasalgan[2,5,6]. Jami tahlil qilingan viloyat oykonimlari tarkibida "*obod*" topotermini - 4%, "*qalʼa*" topotermini - 0.3%, "*ovul*" topotermini -1,5% ni tashkil qilmoqda.

Viloyat toponimlari tarkibidagi oykonimlar

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



1-rasm. Viloyat toponimlari tarkibida oykonimlarning ulishi.
(Diagramma muallif tomonidan tuzilgan)

Shuningdek viloyat oykonimlarning hududiy tarqalishida biror bir turning yaqqol ustunligi ko'rinmaydi.

Xorazm qadimdan sharq va g'arbni, shimol va janubni tutashtiruvchi chorrahada joylashganligi hamda ko'pgina xalqlar uchun doimo go'zal va jannatmakon yurt timsolida ko'rib, barcha podshohlar bu makonga ega bo'lishga va o'ziga qo'shib olishga intilganlar. Shuning uchun qadimdan Xorazmga kuchib kelib joylashgan juda ko'plab xalqlarning avlodlarini etnoikonimlar ko'rinishida ham uchratishimiz mumkin. Shuningdek joy nomlari tarkibida *-ik, -jik, -nik, -lik, -lar, -xos, -tom* affikslari orqali ham juda ko'plab oykonimlarni uchratishimiz mumkin: Arvik(mahalla, Xiva tumani), Knik va Kinikyop(aholi punkti, Xiva tumani), Bozorjik(aholi punkti, Xiva tumani), Jo'jik(aholi punkti, Xiva tumani), Pishkanik(mahalla, Xiva tumani), Rapanik(aholi punkti, Xiva tumani), Ko'palik(shaharcha, Urganch tumani), Daryolik(aholi punkti, Shovot tumani), Ahillik(mahalla, Xonqa tumani), Arboblal(mahalla, Yangiariq tumani), Baratlar(mahalla, Qo'shko'pir tumani), Parchanxos(shahrcha, Xiva tumani), Navxos(qishloq, Xonqa tumani), Ayritom(aholi punkti, Shovot tumani), Ko'ktom(mahalla, Qo'shko'pir tumani) va boshqa shu kabi juda ko'plab oykonimlarni sanab o'tish mumkin.

Xulosa. Geografik nomlar bugungi kundagi muayyan hududdagi mahalliy aholi tomonidan tarixiy rivojlanish jarayonida tabiiy ravishda shakllantirilgan, tegishli ob'ektlarga oid qimmatli tarixiy-madaniy ma'lumotlarni o'zida saqlayotgan, ularning muhim tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy xususiyatlarini aks ettirgan, uzoq vaqt davomida saqlanayotgan geografik nomlar hisoblanadi. Shuning uchun hududiy oykonimlarni geografik jihatdan ham tadqiq qilish ishlari bugungi kun toponimikasining dolzarb vazifalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати,—Т.: «Ўқитувчи», 1977. 44-б.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

2. Дўсимов З. “Хоразм топонимлари”. Т. “Фан”. 1985. 98-б
3. Гуломов Яхё. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. 1959. 294-б.
4. Hakimov Q.M., Mirakmalov M.T. Toponimika-Toshkent:«Tafakkur avlodi», 2020.
5. Kutlimuratov Allayar Abdusharipovich “Xorazm toponimikasi tarkibida geografik terminlarning shakllanishi”, "Экономика и социум" №1(116) 2024.
6. Kutlimuratov Allayar Abdusharipovich “Xorazm viloyati toponimlarining turlari va ularni hosil qilgan tabiiy geografik terminlar”, "Экономика и социум" №4(119) 2024.